

QASHQADARYO VILOYATI TOG‘LI HUDUDLARIDA FOYDALI QAZILMALARNI GEOGRAFIK TARQALISHI

Sultonov Shuxrat Adxamovich - Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti,

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyati tog‘li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishiga doir ma’lumotlarni qisqacha tahlil qilingan bo‘lib. Jumladan, hududdagi foydali qazilmalarni o‘zlashtirishda ko‘p yillik geografik o‘rganishlar va geologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida turli qimmatbaho qazilma boyliklari borligi, ularning miqdoriy jihat va sanoat ahamiyati va xalq xo‘jaligini muhim tarmoqlarini, ayniqsa gaz, oltin ishlab chiqarish, kimyoviy o‘g‘itlar, rangli metallurgiya, ruda bo‘lmagan xom ashyolar va qurilish materiallari konlari haqida mulohazalar qilingan va tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tog‘, hudud, tabiiy kompleks, sanoat, xomashyo, kon, qidiruv, foydali qazilma, neftgaz, oltin, gips, slanets.

GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MINERALS IN THE MOUNTAINOUS AREAS OF KASHKADARYA REGION

Sultanov Shukhrat Adkhamovich - Associate Professor of Karshi State Technical University

Abstract. The article briefly analyzes data on the geographical distribution of minerals in the mountainous regions of the Kashkadarya region. In particular, as a result of many years of geographical studies and geological research in the development of minerals in the region, the presence of various valuable mineral resources, their quantitative and industrial significance, and important sectors of the national economy, especially gas, gold production, chemical fertilizers, non-ferrous metallurgy, non-ore raw materials and construction materials, are considered and relevant conclusions are drawn.

Key words: mountain, region, natural complex, industry, raw materials, mining, exploration, mineral, oil and gas, gold, gypsum, shale.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Hozirgi kundagi xalq xo‘jaligi rivoji, shahar infratuzilmasi, transport, qurilish, suv inshootlarini bunyod etilishi, yangi yerlarni o‘zlashtirish va boshqa xalq xo‘jaligi ishlarini chuqur

geografik va geologik tadqiqotlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuni inobatga olib O'zbekiston geolog va geograflari jumladan, tabiiy jarayonlarni o'rganish soha mutaxassislarining ham ilmiy tadqiqot ishlari xalq xo'jaligi taraqqiyoti jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilish hamda atrof-muhitni va yirik hududiy ishlab chiqarish majmualarini sifat jihatdan o'zgartirishning ilmiy asoslarini yaratishga qaratilgandir.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish O'zbekiston hududi tabiiy sharoitini chuqur bilishni taqozo qiladi. Shuning uchun soha mutaxassislari O'zbekistonning tabiiy komponentlari, tabiiy komplekslari, ularning holati, bir-biriga bog'liqligi tabiiy boyliklari, ulardan oqilona foydalanish, muxofaza qilish haqida bilish bilan birga, Respublikamiz tabiatidagi tafovutlarni tushunib olishga, amaliy faoliyatda ularni nazarda tutishga xizmat qiladi.

O'zbekiston hududida ko'p yillik geografik o'rganishlar va geologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida turli qimmatbaho qazilma boyliklari borligi, ularning miqdoriy jihat va sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan konlari aniqlandi. Bu xalq xo'jaligini muhim tarmoqlarini, ayniqsa gaz, oltin ishlab chiqarish, kimyoviy o'g'itlar, rangli metallurgiya, ruda bo'lmagan xom ashyolar va qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini berdi. Hozirgi kunga kelib aniqlangan qazilma boyliklar manbalari ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis, tabiiy gaz, qo'rg'oshin, rux, ko'mir va boshqa mahsulotlar bilan taminlabgina qolmay, hattoki ishlab chiqarishni ancha kengaytirish imkonini ham beradi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Qashqadaryo viloyati tog'li hududlarida aniqlangan uglevodorod konlari Hisor tizmasining janubi-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, Odamtosh, Gumbuloq, Pachkamar, Qizilbayroq, Omanota nomli joylarda yuqori yura davri karbonat tog' jinslari antiklinal burmalarida ham ochilgan.

Qashqadaryo viloyati hududida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan ko'mir konlari yo'q. Viloyatning ko'mirga bo'lgan ehtiyojini Yakkabog' tog'laridagi Vori va Zarvas qishloqlari orasidagi toshko'mir koni qisman qondirishi mumkin (A.Mamatov, 1994).

Dehqonobod tumanining janubi sharqida Dehqonobod, Xo'jarna, Qizilcha, Dardara, Kann va boshqa konlarda yonuvchi slanetslarning namoyon bo'lishi aniqlangan. Ammo ularning sanoat ahamiyati hozircha aniq emas. Slanetslardan nerozin – g'iza o'sishining stimulyatorini olish mumkin ekanligini nazarda tutgan holda yonuvchi slanetslar xom ashyosining konlarini va ulardagi zahiralarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyati hududida rangli metallar ma'danlari toifasiga mansub bo'lgan marganetslarning zahirali Qoratepa tog'larining janubi – g'arbiy yonbag'irlaridagi Davtosh va Qizilbayroq konlarida (Chiroqchi tumani) topilgan. Ammo marganets ma'danlarining uncha katta bo'lmagan bu konlari sanoat ahamiyatiga ega emas. Davtosh konining zahirasi 0,8 million tonnani tashkil etadi, madandagi marganetsning miqdori 16,8 % ni tashkil etadi. Konda marganets ma'danini ochiq usulda qazib olish mumkin. Qizilbayroq konining ma'danlari metallurgiya sanoatida hamda qishloq xo'jaligida mikroo'g'itlar sifatida foydalanilishi mumkin. Chunki marganets ma'danining tarkibida kobalt, molibden, miss, rux va boshqa kimyoviy elementlar mavjud. Bu konlardagi marganets ma'danlaridan hozirgi sharoitda qora metallurgiyada foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas, ammo geologik qidiruv ishlari uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, O'zbekistonda juda katta kaliy va osh tuzi konlari mavjud. taxminiy hisoblarga qaraganda, kaliy tuzlari 100 yildan ko'proqqa yetadi, osh (tosh) tuzining mamlakatimizdagi konlardagi zahirasi 90 milliard tonnani tashkil etadi.

Osh tuzini yirik koni viloyatning Dehqonobod tuz havzasini (Hisor tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlarida) o'z ichiga oladi. Dehqonobod tuzli havzasi Boybichakon, Xamkon va boshqa tuzli strukturalarni o'z ichiga oladi. Bu yerda Boybichakon va Tepaquton osh tuzining juda yirik konlari aniqlangan. Butun havza doirasida tuz qatlamlarining qalinligi 200 – 600 metrni tashkil etadi.

Boybichakon osh tuzi koni Qamashi tumanida Langar qishlog'idan 12 kilometr janubi – sharqda, Qamashi shahridan esa 52 kilometr janubi – sharqda joylashgan. Tuzli qatlamlar yer yuzasidan 600 – 1000 metr chuqurliklarda joylashgan. Mahsuldor qatlamning qalinligi 240 metr.

Tuzlarning C_1 toifasi balans zahirasi 234,6 million tonna, C_2 toifasi bo'yicha esa 485, 1 million tonnani tashkil etadi. Osh tuzining istiqbolli zahirali juda ulkan.

Osh tuzi shuningdek Tepaquton kaliy tuzli konida ham mavjudligi aniqlangan. Bu yerda osh tuzining zahirasi 6,1 million tonnani tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati ulushiga kaliy tuzlarining O'zbekistonda bashoratlashtirilgan zahiralarining 70% ga yaqini va balansdagi zahiralarining qariyb 100% i to'g'ri keladi.

Hisor tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlaridan Oqbosh, Tepaquton, Kaypantov va Pachkamar tuzli maydonlari aniqlangan. Ular orasida eng yirigi Dehqonobod shaharchasidan 30 kilometr shimoli – sharqda joylashgan Tepaquton

konidir. Bu kondagi kaliy tuzlarining bashoratlashirilgan zahirasi 500 million tonnani tashkil etadi.

Tepaquton kaliy tuzlari koni negizida chet ellik investorlar ishtirokida kaliy o'g'iti ishlab chiqarishini tashkil etish nazarda tutilmoqda. Tuzlarni kompleks qayta ishlash bromli temir, magnezit, gips va boshqa materiallarni yo'l – yo'lakay olish imkonini beradi.

Hisor tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlari doirasida Dehqonobod tumanida ToshDU (Hozirgi O'zMU) geologlari tomonidan bashoratlashirilgan zahirasi 213 million tonnani tashkil etadigan fosforit konlarining mavjudligi aniqlangan. Fosforit konlari ochiq usulda ekspluatatsiya qilinishi mumkin. Hududda geologik qidiruv ishlarini davom ettirish boyroq ma'danli konlarni topish imkonini berishi mumkin.

Geologik qidiruv ishlari natijasida Qoratepa tog'larining yonbag'irlarida, Chiroqchi shahridan 30 kilometr shimoli – sharqda pegmatitning Lolabuloq koni aniqlangan bo'lib, unda pegmatitning bashoratlashirilgan zahirasi 7 million tonnani tashkil etadi.

O'zbekistonning boshqa hududlari kabi Qashqadaryo viloyati hududi ham turli qurilish materiallariga juda boy. Viloyatda qazib olinayotgan mineral boyliklar ichida marmar, dolomit, ohaktosh, keramzit kabi pardozlash, haykaltaroshlik, qurilish xom ashyosi bo'lgan noma'dan boyliklar yoqilg'i – energetika resurslaridan keyinig o'rinda turadi.

Qashqadaryo tog' – kon kimyo sanoati uchun kerakli bo'lgan turli xom ashyolarga ham boy hududdir.

Hozirda, mamlakatimizda 20 dan ortiq marmar koni aniqlangan bo'lib, ulardan Bodomzor, Iskana, Sevaz, Tomchiota, Makrid, Xazornava, Birkunlik va boshqa konlar Qashqadaryo viloyati hududidadir. Bu konlardan xilma – xil tovlanuvchi marmarlar qazib olinadi. Bu konlardagi marmarning umumiy zahirasi 4 million kub kilometrdan ortiqroqdir. Viloyatdagi marmar konlarining xom ashyosi Kitob va Makrid toshga ishlov berish kombinatlarida marmar bloklari va maydalangan uvoqlarini ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Bu kombinatlarning texnologik asbob – uskunalari mustaqillik yillarida xorijiy mamlakatlardan keltirilgan yangi asbob – uskunalar bilan almashtirildi va mahsulot ishlab chiqarish va mahsulot turlari ko'paytirildi. Hozirgi paytda viloyatimizda qazib olinayotgan bezakbop qoplama toshlarning ajoyib xususiyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Dolomitli ohaktoshning zahirallari ham ancha katta bo'lib, Dehqonobod va Pachkamar konlarida ayniqsa batafsil o'rganilgan. Dehqonobod konida devorbop doloitlarning zahirasi 6,4 million kub metrni, Pachkamar konida esa 4,7 million

kub metrغا yaqinni tashkil etadi. Hozirgi paytda bu konlarning dolomitli ohaktoshlari devorbop toshlar va o'tga chidamli xom ashyo uchun foydalanilmoqda. Bu konlar mahalliy ehtiyojdan tashqari Samarqand va Toshkent chinni zavodlariga ham xomashyo yetkazib bermoqda.

Ohaktoshning Zarafshon tizmasi janubiy tarmoqlaridagi Qaynar II va Hisor tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlaridagi Langar konlari aniqlangan.

Qaynar II koni Kitob shahridan 7 kilometr shimolda, Qoratepa tog'larining janubi – sharqiy qismida joylashgan bo'lib, karbonatli qatlamning qalinligi 640 metrdan 1150 metrgacha yetadi. Bu oradagi ohaktoshlar 1 navli ohak ishlab chiqarish uchun yaroqli. Umumiy zahirasi $A + B + C_1$ toifasi bo'yicha 8862,0 ming tonnani tashkil etadi.

Langar qishlog'i yaqinidagi ohaktoshlarning konida qazib olish chuqurligi 30 metrgacha bo'lgan 15 million tonnalik bashoratlashirilgan zahirasi aniqlangan. Geologik qidiruv ishlari natijasida olingan taqribiy ma'lumotlarga ko'ra Langar konining C_1 toifasi bo'yicha zahirasi 140 million tonnani tashkil etadi.

Sement xom ashyosi sifatida foydalanish bo'lgan ohaktoshlar Kitob shahridan 12 kilometr shimolda joylashgan Qoratepa konida topilgan bo'lib, $C_1 C_2$ toifasi bo'yicha zahirasi 326 million tonnani, shu jumladan C_1 toifasi bo'yicha zahirasi 215 million tonnani tashkil etadi.

Ganch – albastr xom ashyosi bo'lgan gipsning yirik zahirasi Pachkamar, Langar, Oloviddin, Qalqama, Maymanov, Koson tog' kabi konlarda to'plangan.

Gipsning eng yirik koni Pachkamar konidir, bu kon G'uzor shahridan 10 kilometr janubi-sharqida joylashgan bo'lib, kimyoviy tarkibiga ko'ra 1 navli qurilish gipsidir. Taqribiy hisoblarga ko'ra Pachkamar konidagi qatlamning qalinligi 6 metr hisoblangandagi gipsning zahirasi 1692 ming tonna tashkil etadi. Qurilish materiali sifatida gips Tepaquton va Langar konlaridan ham qazib olish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida qurilish uchun zarur bo'lgan qum – shag'al va pishiq g'isht tayyorlashga zarur bo'lgan tuproq – grunt zahirasi juda katta. Hozirgi paytda viloyatda va mamlakatimizning boshqa hududlarining ehtiyoji uchun foydalanilayotgan eng yirik Tanhoz qum – shag'al koni ba'zasida Tanhoz shag'al saralash zavodi mahsulot bermoqda. 1964 yilda aniqlangan bu yerdagi qum – shag'alning zahirasi 29,2 million kub metr.

Chiroqchi tumanida yirik donador qumning $B + C_1$ toifasi bo'yicha belgilangan zahirasi 38,97 mln m^3 bo'lgan Chiyal koni beton va qurilish ishlari uchun katta miqdorda xom ashyo berish mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki Qashqadaryo viloyatining tog'li hududlaridagi

foydali qazilmalarning geografik tarqalishi ancha tarqoq bo'lishiga qaramay Respublika sanoatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, neftgaz va qurilish materiallari jihatidan muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yangi geologik tadqiqotlar davomida foydali qazilmalar tarqalish kengligi va zaxiralari ham aniqlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES).

1. Каримов И.А., Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Т., 1997. 244 - бет.
2. Бедер Б.А., Артезианский воды Юго-Западного Узбекистана. Т.1961.
3. Гвоздецкий Н.А., Природные районирование Средние Азий Физика-географический районирование СССР. Изд-во МГУ,1960.
4. Faizullaev M.A., Nurmatov A.U., Khujakulov S.U.Economic geographical characteristics of the development of industrial networks of Kashadarya region // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. P. 125-134.
5. Файзуллаев.М.А., [Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустриал циклининг шаклланиши ва ривожланиши](#). Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.
6. Султонов Ш.А., Навотова Д. И., Алиева Д. И. Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари //Science and education in the modern world: challenges of the XXI century" Nur-Sultan, Kazakhstan. – 2020. – С. 12-15.
7. Использование минерально-сырьевых ресурсов. Изд-во. Узбекистан, Т. 1977.
8. Кашкадарьинский область, Труды САГУ.Том.I Т. 1959.
9. Faizullaev M.A., [Characteristics of agriculture in Uzbekistan in the years of independence](#). European science review, 2015, 3 (4), 67-69.
10. Samiyev U.A., O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Darslik: Andijon – 2024-yil / 230 b.
11. Sultonov Shuxrat Adxamovich, Navotova Dilnoza Ibrogimovna, O'zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. -№2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. <http://www.iupr.ru> , ISSN 2225-1545
12. Sh.A.Sultonov, D.N.Mavlonova, Z.B.Boboqulova, Foydali qazilmalarning sanoat turlarini o'rganishga doir ma'lumotlarni qisqacha tahlil qilish. Экономика и социум №1(128)-2 2025, 454-459 betlar, 2025-yil, www.iupr.ru, ISSN 2225-1545